



O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVI VA UNING TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Shadibekova Dildor Abduraxmanovna -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Biznesni boshqarish va logistika
kafedrasi dotsenti, i.f.n.

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a35

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro integratsion birlashmalar faoliyati, ushbu birlashmaga kiruvchi mamlakatlar bilan o'zaro savdo aloqalarini, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish lozimligi aytib o'tilgan. Maqolada hozirgi kunda mustaqil respublikamizning dunyoning yirik moliya tashkilotlari, islom moliyasi xalqaro fondlari bilan aloqasi kuchayib borayotgani ko'rsatilgan. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston tadbirkorlari uchun jahon bozoriga chiqish, jahon standartlariga mos tovarlarni ishlab chiqarish va natijada respublikada iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik yanada rivojlanib, kichik va o'rta biznes korxonalarini katta yutuqlarga erishishi izohlangan.

Kalit so'zlar: xalqaro integratsion birlashmalar, hamkorlik munosabatlari, islomiy moliya aktivlari, tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat.

ИНТЕГРАЦИЯ УЗБЕКИСТАНА В МЕЖДУНАРОДНУЮ ФИНАНСОВУЮ СИСТЕМУ И ЕГО РОЛЬ В РАЗВИТИИ БИЗНЕСА

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна -
Ташкентский государственный экономический
университет, к.э.н., доцент кафедры
«Управление бизнесом и логистика»

Аннотация. В данной статье показана необходимость развития деятельности международных интеграционных объединений, торговых отношений со странами, входящими в это объединение, а также отношений сотрудничества с международными финансовыми организациями. В статье показано, что наша независимая республика в настоящее время укрепляет свои отношения с крупнейшими мировыми финансовыми организациями и международными фондами исламских финансов. Разъяснено, что это, в свою очередь, приведет к производству товаров для мирового рынка и мировых стандартов для предпринимателей Узбекистана, и, как следствие, дальнейшее развитие экономического и социального благополучия республики, а также и предприятия среднего бизнеса добьются больших успехов.

Ключевые слова: международные интеграционные объединения, кооперационные отношения, исламские финансовые активы, хозяйствующие субъекты, производственная инфраструктура, экспорт, импорт, внешнеэкономическая деятельность.

INTEGRATION OF UZBEKISTAN INTO THE INTERNATIONAL FINANCIAL SYSTEM AND ITS ROLE IN BUSINESS DEVELOPMENT

Shadibekova Dildor Abduraxmanovna -
Tashkent State University of Economics, Associate professor
of "Business management and Logistics"

Astract. In this article, the activity of international integration associations, the need to develop mutual trade relations with the countries that are part of this association, as well as mutual cooperation relations with international financial organizations have been discussed. Nowadays, the connection of our independent republic with the world's major financial organizations and international funds is increasing. It is explained that this, in turn, will help the entrepreneurs of Uzbekistan to produce goods suitable for the world market and meet world standards, and as a result, economic and social welfare will further develop in the Republic, and small and medium-sized business enterprises will achieve great success.

Keywords: international integration associations, cooperative relations, Islamic finance assets, business entities, production infrastructure, export, import, foreign economic activity.

Kirish. Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi. Ular turli mamlakatlarga mablag' ajratish va kredit berish bilan shug'ullanadi, jahon savdosini rivojlantirish va moliya tizimini barqarorlashtirishga yordam beradi. Ushbu tashkilotlarning tadbirkorlikni rivojlantirishda ham o'rni juda katta. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmonida belgilangan vazifa-

larni amalga oshirish doirasida biznes yuritish tartib-taomillarini sezilarli darajada soddalashtirish, infratuzilmani yaxshilash va moliyaviy manbalarni kengaytirish orqali tadbirkorlikning izchil o'sishi ta'minlanayotgani ta'kidlandi [1].

Aholining turli qatlamlarini, shu jumladan, yoshlar, kam ta'minlangan va himoyaga muhtoj fuqarolarni, shuningdek, kichik korxonalarining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvat-

lash bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirilmogda. Birgina "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish uchun 7, 2 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro moliyaviy institutlarning mamlakatimiz bilan amaliy aloqalari va ularni rivojlantirish masalalari bo'yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar o'z tadqiqotlarida fikr va mulohazalarini keltirib o'tishgan.

J.X.Ataniyazov, E.D.Alimardonov "Xalqaro moliya munosabatlari" nomli darsligida ta'kidlaganidek, bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlardan Xalqaro valuta fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki (YeTTB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol hamkorlik aloqalari olib borilmoqda [2].

"Jahon moliya bozori" atamasini turli mualliflar bir xilda izohlamaydilar. "Jahon moliya bozori" atamasining turli izohlardagi farqi uning keng yoki tor ma'nodagi izohi hisoblanadi. Lekin keng yoki tor ma'nodagi izohi ham turlicha tushuniladi. Masalan, taniqli olim L.N.Krasavinaning qayd etishicha, "jahon moliya bozorlari keng ma'noda mamlakatlar orasida pulli kapitallarning akkumulyatsiyasi va qayta taqsimotini ta'minlovchi bozor munosabatlari sohasidir. Jahon moliya bozori tor ma'noda fond bozori, ya'ni qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bozoridir"[3]. Bunda Krasavina Jahon moliya bozorlarini qator mezonlar bo'yicha va bozor tuzilmasi nuqtayi nazaridan tasniflaydi:

- valyuta bozorlari (shu jumladan, yevro valyutalar bozori);

- ssuda kapitallari bozori, ular pul bozori, kapitallar bozori, Yevropa bozoriga bo'linadi;

- fond bozorlari;

- sug'urta bozorlari;

- oltin bozorlari [3].

D.M.Mixaylov jahon moliya bozorini unda muomalada bo'lgan vositalar nuqtayi nazaridan ko'rsatib o'tadi. Bunda uning fikricha, jahon ssuda kapitali bozori va jahon moliya bozori "tushuncha nuqtayi nazaridan bu tushunchadan ko'proq amaliy foydalanishda o'xshash kategoriyalar hisoblanadi" [4]. Jahon moliya bozorida esa qarz kapitali, qarz vositalari va hosilaviy shartnomalar savdo obyektlari sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari Mixaylov jahon moliya bozorini bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazaridan (amaliy nuqtayi nazardan) farqlaydi, u aynan: "xalqaro moliya bozori deganda, bank vositalari bozorida pul kapitalini subyektlar o'rtasida qayta taqsimlash va yig'ish bilan bog'liq yo'nalishni ta'minlovchi, xalqaro va mahalliy bozorlarning o'zaro uyg'unlashuvi va yg'indisi hamda boshqa moliyaviy muassasalar ham erishish maqsadi uchun takror ishlab chiqish va kapitalga talab va taklif o'rtasidagi me'yoriy nisbatga erishish"[4], – deb e'tirof etilgan. Moliya bozori(ssuda kapitallari

bozori)ning asosiy vazifasi harakatsiz pul mablag'larining ssuda kapitaliga transformatsiyasidan tarqib topgan"[5] degan tushunchalarni uchratish mumkin.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, qator mualliflar (xususan, V.A.Slepov va E.A.Zvonova) xalqaro moliya bozori ta'rifida bozorning mohiyatini emas, balki moliyaviy tizim tushunchasini asos qilib oladilar: "Xalqaro moliya bozori – xalqaro moliyaning xalqaro moliya tizimidagi ma'lum doiralardagi harakati shakli" [6]. Mazkur mualliflarning fikricha, Jahon moliya bozori tushunchasi xalqaro moliya bozoriga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi, bunda xalqaro va milliy moliya bozorlari yg'indisini tushunish lozim, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlar, (yagona) alohidalik va mustaqillikka ega. Xalqaro moliya bozoriga kelsak, u quyidagi bozorlar: valyuta, kredit, fond, investitsiyalar, sug'urta bozorini o'z ichiga oladi. Biroq mualliflar e'tiborni shunga qaratadilarki, ushbu gradatsiya yetarlicha shartli ko'rinishga ega, ya'ni posilali vositalar bozori singari yana bir hodisa mavjudki, uni ham valyuta bozori, ham kredit bozori va hokazo bozorlarga ham kiritish mumkin. Ushbu mualliflarning "jahon moliya bozori singari murakkab hodisaning bir xil tasnifi maqsadga muvofiq emas" degan fikrlarini ma'qullash lozim [6].

R.E.Olimova o'z tadqiqotida O'zbekiston va xalqaro moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalari, hozirgi kunda mustaqil respublikamizning dunyoning yirik moliya tashkilotlari bilan aloqasi kuchayib borayotganini ko'rsatib o'tgan. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston tadbirkorlari uchun jahon bozoriga chiqish va natijada respublikada iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik yanada rivojlantirishini ta'kidlagan [7].

R.X.Xojimatovning fikricha, jahon moliya bozori (JMB) milliy chegaralar hisobga olinmagan global bozor bo'lib, unda turli-tuman moliyaviy aktivlar muomalada bo'ladi. Mohiyatan, bu global moliyaviy muhitdir. Biroq gap jahon moliya bozori milliy bozorlarning mexanik tuzilishi hisoblanishi haqida emas. Jahon moliya bozori (JMB) turli milliy va xalqaro: kredit, valyuta, fond, derivativlar, qimmatbaho metallar bozorlarida muomalada bo'lgan turli moliyaviy vositalar yg'indisidir [8].

Sh.Yovkochev "Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasidagi investitsion faoliati tahlili" nomli maqolasida xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasidagi investitsion faoliati to'g'risida fikr yuritilgan. Unda xalqaro moliya instituti investitsion faoliyati xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqolada Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banklarining ajratgan kredit liniyalari tahlil etilgan[9].

Shuningdek, mazkur mualliflarning fikricha, Xalqaro moliya fondi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining a'zo mamlakatlariga ajratgan kre-

ditlari tahlil etilgan. Tahlil natijasida hozirgi kunga kelib, xalqaro moliya institutlarining dunyo mamlakatlari rivojlanishidagi o'zni to'g'risida atroflicha xulosa qilinadi [10].

Bundan tashqari muallif o'z tadqiqotlarida iqtisodiy-matematik modellarga va xalqaro moliya institutlarining investitsion xususiyatlariga to'xtalib o'tgan [11].

Biz boshqa mualliflar fikriga qo'shilamiz, bunda jahon moliya bozorining turli segmentlarini ajratish maqsadga muvofiq. Biroq tasnif ko'p darajali bo'lishi kerak, ya'ni maqsadga ko'ra turli mezonlardan foydalanish lozim.

Ma'lumki, Islom taraqqiyot banki guruhiga quyidagi tashkilotlar kiradi:

Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (XSRIK), 1999-yilda tashkil etilgan bo'lib, xususiy sektorga moliyaviy xizmatlarni taqdim qiladi. U global hamkorlik platformasida kredit liniyalari, maslahatlar, aktivlarni boshqarish, investitsiyaviy bitimlar va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun strategik hamkorlikni ta'minlaydi. Moliyalashtirish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi, jumladan: kapital va foyda olishda ishtirok etish, lizing, qisman qayta sotish va shu kabilar.

1999-yilda asos solingan Xalqaro Islom savdo va moliya korporatsiyasi (XISMK) Islom taraqqiyot bankining avtonom bo'linmasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi butun Islom dunyosidagi odamlarning iqtisodiy ahvoli va turmush tarzini yaxshilash maqsadida savdoni rivojlantirishdan iborat.

1977-yilda tashkil etilgan Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasining (XQXRJ) asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish va kam ta'minlanganlarning ovqatlanish holatini yaxshilash uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishdan iborat. Jamg'arma kam ta'minlangan qishloq uy xo'jaliklarining ovqatlanishini yaxshilash, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va daromadlarni ko'paytirishga sharoit yaratish maqsadida mablag'larni safarbar qiladi.

Tadqiqot metodikasi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishda islomiy moliyasidan foydalanish yo'llari asosanib, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyalarni asoslash jarayonida qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlili va natijalar. Erishilgan muvaffaqiyatlar bilan birga, bir qator hal etilmagan muammolar saqlanib qolmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish infratuzilmasi, kredit va boshqa moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlashda qiyinchliklarga duch kelinmoqda.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni kompleks va tezkor hal etish, barcha darajadagi davlat organlarining yagona uslubiy rahbarlik ostida o'zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlik qilishi, xususiy mulkning ishlashi, tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholining keng qatlamlarini biznes bilan shug'ullanishga faol jalb etish talab qilinadi. Tadbirkorlikni rivojlantirishda xalqaro moliya organlarining o'zni juda katta.

Hozirgi sharoitda mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi har bir mamlakatning milliy iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ularni hisobga olish har bir davlatning samarali tashqi iqtisodiy siyosat yuritishining zarur shartiga aylanib qoldi. Mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Xalqaro moliya munosabatlarining o'ziga xos jihati shundaki, ushbu munosabatlar o'zida milliy va jahon xo'jaligi muammolarini mujassamlashtiradi. Jahon xo'jaligining globallashuvi va baynalmilallashuvi natijasida tovarlar, xizmatlar va ayniqsa, kapital oqimlarining xalqaro darajadagi aylanmasi kengaymoqda.

Barcha mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasining xalqaro tajribasi Markaziy Osiyo hamdo'stligi doirasidagi integratsiya jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan bir qancha xulosalarga kelish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning har bir subyekti, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ham, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatning natijalariga, shu jumladan, chet el valyutasidagi daromadga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga haqlidir.

Hozirda O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatda hamda iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi oshib bormoqda. Bunda davlatimiz hukumati tomonidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bu yo'ldagi yutuq hamda marralarning salmoqli bo'lishiga imkoniyat yaratmoqda.

Bizga ma'lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim vositasi hisoblanadi. U mamlakatning jahon hamjamiyatiga bo'lgan aloqasini ifodalab, uning istiqbolini belgilab beradi. MDH mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining katta qismini tashkil etib keladi. Yaqin yillardagi tashqi savdo aylanmasining umumiy ko'rsatkichlari 2017-yilda 34,2 %, 2018-yilda 36,3 %, 2019-yilda 34,6 %, 2020-yilda 32,2 %, 2021-yilda 37,7 %ni egallagan holda asosiy savdo hamkorlarimiz guruhi bo'lib kelmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar doirasida o'tgan yil davomida MDH davlatlari bilan umumiy

MOLIYA VA SOLIQLAR

tashqi savdo aylanmasi 15,86 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, shundan eksport 5,4 mlrd. AQSh dollari, import hajmi esa 10,46 mlrd. AQSh dollarini

tashkil etgan. Passiv tashqi savdo aylanmasi 5,05 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

1-jadval


2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSh dollarida)

Davlat nomi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Xitoy	4 754,22	6 433,53	7 637,38	6 438,27	7 440,86
Eksport	2 025,48	2 875,39	2 528,75	1 937,05	2 518,77
Import	2 728,74	3 558,14	5 108,63	4 501,22	4 922,09
Rossiya	4 728,66	5 655,89	6 669,56	5 659,54	7 516,96
Eksport	2 019,16	2 117,29	2 531,87	1 485,76	2 058,86
Import	2 709,50	3 538,60	4 137,69	4 173,78	5 458,10
Saldo	-690,34	-1 421,31	-1 605,82	-2 688,03	-3 399,24
Turkiya	1 552,47	2 057,53	2 544,04	2 106,26	3 388,31
Eksport	877,81	944,76	1 217,63	1 018,99	1 690,05
Import	674,66	1 112,78	1 326,41	1 087,27	1 698,26
Saldo	203,15	-168,02	-108,78	-68,27	-8,21
Qozog'iston	2 055,74	2 919,61	3 334,98	3 005,77	3 910,53
Eksport	1 057,58	1 352,17	1 392,96	908,42	1 172,11
Import	998,16	1 567,44	1 942,01	2 097,35	2 738,42
Saldo	59,41	-215,27	-549,05	-1 188,93	-1 566,31
Koreya	1 387,63	2 159,14	2 767,71	2 150,71	1 889,47
Eksport	143,34	108,67	102,89	51,34	51,81
Import	1 244,29	2 050,47	2 664,82	2 099,37	1 837,66
Saldo	-1 100,95	-1 941,81	-2 561,93	-2 048,03	-1 785,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi materiallari.

Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi koronavirus pandemiyasidan so'ng haligacha 2019-yildagi ko'rsatkichlarga yeta olmayapti. Import hajmining o'sishda davom etishi esa quyidagilarni xulosa qilishga asos bo'ladi. O'zbekiston tovarlari MDH mamlakatlari bozorida talabning kamligi,

mustahkam o'ringa ega emasligi, bizning bozorlarimizda esa MDH mamlakatlari tovarlariga nisbatan ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Yaqin yillarda tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlarining ulushi sezilarli darajada o'smayotgani kuzatilmoqda.



1-rasm. O'zbekistonning 2021-yildagi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari[15]



2-rasm. O'zbekistonning 2021-yildagi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasining o'sish sur'atlari[15]

Eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat ichida ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga erishiladi. Mamlakat eksporti hamda importning qiymati o'rtasidagi farq, ya'ni saldo tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining muhim iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich milliy daromad darajasiga ko'p tomonlama ta'sir etadi. Sababi, import va eksport hajmidagi sezilarli o'zgarish ham mamlakatdagi daromad, bandlik va narx darajalarida muayyan tebranishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Keyingi yillarda mamlakatimizda keskin raqobatlashuv sharoitida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo'lishi va mustahkam o'rin egallashi uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, mamlakatning iqtisodiy tarmoqlarida investitsiya muhitni shakllantirish va uning jozibadorligini ta'minlash borasida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va mazkur zonalariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 2022-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021-yilda tashqi savdo aylanmasi 7525.8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. 2022-yilda esa tashqi savdo aylanmasining jami hajmi 13155.8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 174.8 foiz o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2021-yildagi saldo hajmi -2688.6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 59,9 foizga o'sib, -1610.4 mln. AQSh dollarini tashkil etmoqda. Eksport sohasida 2021-yilga qadar 2418,6 mln. AQSh dollari miqdorida tovar realizatsiya qilingan

bo'lsa, 2022-yilga kelib 5772,7 mln. AQSh dollarini tashkil etmoqda va 2021-yilga nisbatan 238,7 foizga oshgan. 2021-yil jami 5107,2 mln. AQSh dollari miqdorida tovar import qilingan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 144,6 foizga oshib, 7383,1 mln. AQSh dollarini tashkil etmoqda.

Keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra, tashqi savdo aylanmasining ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan deyarli 1,8 barobar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, saldo borasida ham 2022-yilda manfiy ko'rsatkich bilan 1610,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 1,6 barobar oshganligi alohida ahamiyatga ega.

Ushbu ma'lumotlar asosida 2021-yilda mamlakatimizda tashqi savdo faoliyatida sezilarli darajada ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilgan. Bunga yorqin misol sifatida tashqi savdo aylanmasining 1,8 barobar, saldo esa 1,6 barobarga oshganligini aytib o'tish joiz. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizda tashqi savdo faoliyatining rivojlanib borayotganligini va shu rivojlanish zamirida tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda dunyoning yirik moliya tashkilotlari, islom moliyasi xalqaro fondlari bilan aloqasi kuchayib borayotgani asosiy omil sifatida xizmat qilayotganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Ko'rib chiqilgan tadqiqot va tahlil natijalariga ko'ra mamlakat iqtisodiyotining asosiy sohalaridan biri tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish mamlakatning rivojlanganlik darajasini oshiradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda importning o'rnini qoplash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturning maqsadi mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan imkon boricha to'liq va sa-

marali foydalanish hamda uni rivojlantirish asosida eksport hajmining barqaror o'sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish uchun xorijiy sarmoyalarni ustuvor yo'nalishlarga keng jalb qilish, ularga kafolat va imkoniyatlar berish, litsenziyalar, nou-xaular sotib olishga qaratilgan izchil siyosat olib borilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirishda quyidagilarni ustuvor yo'nalishlar sifatida keltirish mumkin:

- respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini mahsulotlari asosida eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

- eksport imkoniyatlarini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmatbaho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini rivojlantirish zarur. Eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan o'tkazish, o'zimiz ishlab chiqarishimiz mumkin bo'lgan tovarlar va mahsulotlarning chetdan keltirilishini oqilona darajada kamaytirib borish talab qilinadi;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatish, o'z mahsulotini chet ellarda sotishda ko'proq erkinliklar berish, tovarlarni eksport va import qilishda birmuncha imtiyozli tartibni joriy qilish borasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat o'tkazish;

- xorijiy investitsiyalar jalb qilish orqali amalga oshirilayotgan sanoat loyihalarining bir-biriga bog'liqligini ta'minlash, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va ishlab chiqarish, hamkorlik va infratuzilmani rivojlantirish va bu orqali import o'rnini bo-


suvchi va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va yetishtirishga erishish;

- olib borilayotgan islohotlarda hududiy diversifikatsiya siyosatini yanada kuchaytirish, nafaqat markaziy hududlarda, balki chekka tumanlarda ham yirik sanoat obyektlarini qurishni keng yo'lga qo'yish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari majmuyini ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalari, tashqi aloqalarni rivojlantirish manfaatlari va shartlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimlarini vujudga keltirish;

- xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisob sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish.

Shuningdek, mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi[16]. Xalqaro moliya institutlari ham mazkur dasturda ishtirok etish uchun 270 million dollar yo'naltirishga tayyor ekanini bildirdi. Qanday soha va qanday biznes bo'lmasin, uni tashkil etish bo'yicha turli qiyinchiliklar va muammolarga duch kelinadi. Ammo islom moliyasi boshqa sohalarga taqqoslaganda, nisbatan murakkab va yangi yo'nalish hisoblanadi. Sababi islom moliyasi tushunchasi yangi moliyaviy atama sifatida o'tgan asrning 50-yillarida ilmiy adabiyotlarda qo'llanila boshlandi. 1970-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida Dubay Islom banki va Saudiya Arabistonida Islom taraqqiyot banklarining tashkil etilishi bilan islom moliyasi asosida faoliyat yuritadigan tashkilotlar tarixi boshlandi, deb hisoblash mumkin. Shu nuqtayi nazardan, islom moliyasi an'anaviy moliyaning nisbatan yangi, ammo jadal sur'atlarda o'sizb borayotgan yo'nalishi hisoblanadi. Quyidagi grafikda islom moliyasi aktivlarining so'nggi 10 yildagi o'sishini ko'rish mumkin.



3-rasm. Islom moliyasi aktivlarining o'sish dinamikasi

Manba: Islomiy moliyani rivojlantirish korporatsiyasi hisoboti, 2020.

Yuqoridagi grafikdan ko'rishimiz mumkinki, Islomiy moliya aktivlari jahon miqyosida jadal sur'atlarda o'sib bormoqda va shu bilan birga, unga nisbatan talab ham ortib bormoqda. Buning asosiy sababi Islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish va har bir moliyaviy faoliyatning real aktivlarga asoslanganligi, shu sababli moliyaviy inqirozlarga bardoshli ekanligi bilan bog'liq. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2008-yildagi jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozi davrida birorta ham islomiy bank inqirozga uchramagan. Aynan shu xususiyati bilan islomiy moliya an'naviy moliyadan farqlanib turadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning mazkur yo'nalishlarini izchil tarzda amalga oshirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiy hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash yuzasidan quyidagi taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston Respublikasida xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarishda quyidagi usullardan keng foydalanishni tavsiya etish mumkin:

- xalqaro moliya munosabatlarining qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirib borish;
- valyuta bilan tartibga solishni amalga oshirish;
- soliq bilan tartibga solish;
- tarif va notarif tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarini qo'llash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

2. Xalqaro moliya munosabatlari ishtirokchisi bo'lgan organlar faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, ularning xalqaro moliya operatsiyalarini tartibga solish jarayonidagi rolini oshirish.

3. O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha yaqin kelajakka mo'ljallangan strategiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, eksportni rag'batlantirish uchun, avvalo, barqaror makroiqtisodiy sharoit yaratish, inflatsiya sur'atini prognoz darajasida ushlab turish, valyuta almashtirish kurslarining keskin tebranishlariga yo'l qo'ymaslik;

ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulk shaklidan qat'i nazar, import qilinayotgan ishlab chiqarish vositalarini olish uchun bir xil imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlash;

uchinchidan, yetuk mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasidagi islohotlarni davom ettirish;

to'rtinchidan, eksport salohiyatini rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlarida

yuqori texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;

beshinchidan, mamlakatda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirish.

Eksport hajmini oshirish, uning tarkibini takomillashtirish, umuman tashqi savdo aylanmasini divesifikatsiya qilish iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilishida sifat o'zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko'tarish maqsadlariga xizmat qiladi.

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki muhitni yaxshilash, soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish, xorijiy investitsiyalarni ro'yxatga olish tizimini soddalashtirish.

5. Eksportda qayta ishlangan, tayyor mahsulotlar salmog'ini ko'paytirish, ayniqsa, paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni oshirish va bu sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

6. Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni rivojlantirish uchun yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining samarali aloqasini ta'minlash zarur, ya'ni yirik korxonalariga yarimtayyor mahsulotlar, butlovchi qismlarni yetkazib beruvchilari bo'lishi zarur.

7. Eksportga xizmat qiladigan kichik va o'rta korxonalarini ko'paytirish va ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish va davlat tomonidan imtiyozli kredit liniyalari hajmini oshirish va h.k.

Bunday sharoitlarda, bizning fikrimizcha, quyidagilar O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining imtiyozli yo'nalishlari bo'lishi lozim:

– tashqi iqtisodiy faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan holda liberallashtirish siyosatini o'tkazish;

– eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish yo'li bilan takomillashtirish;

– respublikamizdagi eksportga mo'ljallangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash;

– xorijiy kapitalni, avvalo, moddiy eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish;

– O'zbekistonning jahon transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini rivojlantirish.

Shunday qilib, mamlakatimizning xalqaro integratsion birlashmalardagi faoliyatini, ushbu birlashmaga kiruvchi mamlakatlar bilan o'zaro savdo aloqalarini, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish lozim. Hozirgi kunda mustaqil respublikamizning dunyoning yirik moliya tashkilotlari, xalqaro fondlari bilan aloqasi kuchayib bormoqda. Bu esa

o'z navbatida, O'zbekiston tadbirkorlari uchun jahon bozoriga chiqish, jahon standartlariga mos tovarlarni ishlab chiqarish demakdir. Natijada Res-

publikada iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik yanada rivojlanib, respublikamiz kichik va o'rta biznes korxonalarini katta yutuqlarga erishadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni.
2. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. / J.X. Ataniyazov, E.D. Alimardonov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 432 b.
3. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Красавиной Л.Н. – М.: Финансы и статистика, 2007. С. 289.
4. Михайлов Д.М. Мировой финансовый рынок: тенденции и инструменты. – М.: Издательство «Экзамен», 2000. С. 150.
5. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: Маркетинг, 2003.
6. Международный финансовый рынок. / Под ред. В.А. Слепова, Е.А. Звоновой. – М.: Магистр, 2009. С. 34. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил. www.iqtisodiyot.uz
7. Olimova R.E O'zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalari.
8. Хожиматов Р.Х. Жаҳон молия бозори: назарий қарашлар ва умумий таъсифи. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил.
9. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтларининг Ўзбекистон Республикасидаги инвестицион фаолияти таҳлили. // Экономика и бизнес. 2019, 1 (121).
10. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтларининг жаҳон иқтисодиёти архитектурасидаги ўрни. 2018, 6 (114).
11. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтлари фаолиятини таъкил этувчи иқтисодий-математик моделларнинг назарий асослари. // Экономика и бизнес. 2019, 10 (130).
12. Islomiy moliyani rivojlantirish korporatsiyasi hisoboti, 2020. <https://cyberleninka.ru/>
13. Shadybekova D. Foreign investments and innovative development-is the most important factor in expanding Uzbekistan's production capacities International Scientific Journal. // Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA. 2018. T. 9. C. 65.
14. Shadibekova D., Ismoilov N. ACM Other Conferences, 2021, ACM International Conference Proceeding Series. <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85128598739&doi=10.1145%2F3508072.3508207&partnerID=40&md5=66947ebb183345d59edfeeb1aeac59b7>
15. instat.uz
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.



https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a36

СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ ВА УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИ РАЎБАТЛАНТИРИШГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ

Исаев Аслиддин Икром ўғли -

Тошкент давлат иқтисодиёт университети хузуридаги «Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқот маркази

Аннотация. Мақолада солиқ имтиёзларининг самарадорлигини баҳолаш ва уларнинг иқтисодий ўсишни рағбатлантиришдаги таъсири бўйича тадқиқот олиб борилган. Шунингдек, солиқ имтиёзларининг инвестициялари, бандлик ва инновацияларга таъсири, турли соҳалар ва рағбатлантириш турлари бўйича солиқ имтиёзларининг самарадорлиги ва солиқ ставкалари, маъмурий мураккаблик ва солиқ тўловчининг хатти-ҳаракати солиқ имтиёзларининг самарадорлигига таъсири ўрганилган.

Калит сўзлар: солиқ имтиёзи, инвестиция, бандлик, инновация, самарадорлик, солиқ тизими.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ И ИХ ВЛИЯНИЯ НА СТИМУЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Исаев Аслиддин Икром ўғли -

Независимый научный сотрудник научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В статье рассматривается эффективность налоговых льгот и их влияние на экономический рост. Кроме того, изучалось влияние налоговых льгот на инвестиции, занятость и инновации, эффективность налоговых льгот в различных секторах и виды стимулов, а также влияние налоговых ставок, административной сложности и поведения налогоплательщиков на эффективность налоговых льгот.

Ключевые слова: налоговый кредит, инвестиции, занятость, инновации, эффективность, налоговая система.